

## **KONSOLIDASIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT, UNI MOHIYATI, AHAMIYATI HAMDA UNI TUZISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

**S. R. Egamberdiyeva**

*Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent QarMII “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasiga*

**G‘. A. Rajabov**

*QarMII Buxgalteriya hisobi va audit mutaxassisligi magistranti*

**J. I. Raxmatov**

*QarMII Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi*

**A R T I C L E I N F O.**

**Kalit so‘zlar:**

Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot, bosh va sho‘ba korxonalar, Bosh va sho‘ba korxonalar guruhi, kompensasiya maqsadi.

**Annotatsiya**

Maqolada korxonalarning birlashuvni, konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot uni mohiyati, ahamiyati, asosiy maqsadi hamda uni tuzishning ahamiyati bayon qilingan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

**Kirish.** Respublikamiz iqtisodini, shu jumladan bozorini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri, boshqaruvni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hisoblanadi. Chunki turli xil mulkchilik shakllariga asoslangan korxonalar, shu jumladan chet el investisiyalari asosidagi qo‘shma korxonalar, aksionerlik jamiyatlar, korporasiyalar, kompaniyalar va boshqalarning tashkil etilishi tufayli xorijiy davlatlar, tashkilotlar va xususiy shaxslar bilan aloqlar tobora mustahkamlanib, ularning iqtisodiyotdagi o‘rni tobora salmoqli bo‘lib bormoqda.

Jahon mamlakatlari tajribasidan ma’lumki, korxonalarni samarali boshqarishda ko‘proq ularni yirik guruhlarga birlashtirgan holda tuzish maqsadga muvofiqdir. Bunda ikki yoki undan ortiq kompaniya moliyaviy-iqtisodiy jihatdan bir kompaniya ostida birlashadi.

Korxonalarining birlashuvni deb, alohida bir korxonaning ikkinchisiga qo‘silishi yoki bir korxona ikkinchi korxonaning sof aktivlari va ishlab chiqarish faoliyati ustidan nazoratni sotib olish oqibatida bir iqtisodiy birlikka qo‘yilishiga aytildi. Bu, asosan, biror-bir faoliyat bilan shug‘ullanayotgan kompaniyaning egalari tomonidan ushbu kompaniya tarkibida bir nechta mayda mustaqil korxonalarini tashkil etishga bo‘lgan harakatidan kelib chiqadi. Buning natijasida soliq to‘lovlari bo‘yicha muayyan tejash yuzaga keladi.

Ko‘pchilik hollarda biznesning kengayishi zaruriyat hisoblanadi. Bunday vaziyatda transnasional kompaniyalar o‘z faoliyatini butun jahon bo‘ylab kengaytiradi. Xo‘jalik yurituvchi subektlar guruhining

bosh korxona nazorati ostida birlashuvi yuz bersa, konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot tuziladi.

Moliyaviy hisobot konsolidasiyasi (konsolidasiya inglizcha consolidate so‘zidan olingen bo‘lib, birlashtirmoq, mustahkamlamoq degan ma’noni anglatadi) bu yuridik jihatdan mustaqil, ammo iqtisodiy va moliyaviy tomondan o‘zaro bog‘liq ikki yoki undan ortiq kompaniyalar hisobotlarini birlashtirishdir.

Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishning asosiy maqsadi –korporasiya faoliyati natijalarini va moliyaviy holatini to‘lig‘icha ochib berishdan iboratdir. Afsuski, hozirda amal qilib turgan konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish uslubiyati har doim ham a’lo sifatda ishlamaydi. Korporasiya foydasi taqsimlanishining tortishuvli jarayon ekanligi hamda inflyasiya sharoitida mamlakatlar valyuta kurslarining doimiy o‘zgarib turishi konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishda qiyinchilik tug‘dirmoqda. Demak, valyuta kurslarini qayta hisob-kitob qilish buxgalterlar oldida turgan eng katta muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ilk marotaba konsolidasiyalashgan buxgalteriya hisoboti XX asrning boshlarida AQShda vujudga kelgan. Aynan o‘sha davr jadal iqtisodiy rivojlanish davri bo‘lib, hozirgi iqtisodiy gigantlar o‘sha vaqtagi kichik korxonalarni qo‘shib olishi natijasida paydo bo‘lgan. Shuningdek, hisobga ish va hisobot tuzishning yangi usullarini qo‘llash bo‘yicha to‘siqlar va tartibga soluvchi xujjalalar yo‘q edi. Umumlashtirish g‘oyasi eng yirik fond birjalari tomonidan ma’qullangan edi.

Buning natijasida AQShda birinchi bo‘lib, konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish zaruriyati paydo bo‘lgan.

Yevropada umumlashtirish g‘oyasi birmuncha kechikibroq qaror topa boshladi. Bu borada Gollandiya ancha ilg‘or bo‘lib chiqdi - Mueller So firmasining konsolidasiyalashgan hisoboti haqidagi dastlabki ma’lumot 1926 yilda qayd etilgan.

Buyuk Britaniya va Niderlandiyada konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotning qo‘llanilishi XX asrning 20-yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davlatlarda xolding biznesining keng quloch yoyishi konsolidasiyalashgan hisobotlarni tuzishni taqozo etgan. Hozirgi kunda bu davlatlarda konsolidasiyalashgan moliyaviy hisob ma’lumotlari milliy standartlar asosida tartibga solinadi.

Yevropaning boshqa mamlakatlarida konsolidasiyalash jarayoni sekinlik bilan rivojlangan. Masalan, Germaniyada kompaniyalarning barcha filiallari bo‘yicha konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish zaruriyati bo‘yicha qonun 1960 yilda qabul qilingan bo‘lsa, yirik kompaniyalarning xorijda faoliyat yuritayotgan sho‘ba korxonalari bo‘yicha qonun 80-yillarning oxirida amalga kiritilgan. Shveysariyada konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish milliy standartlar bilan tartibga solinib, ko‘pgina yirik kompaniyalar o‘z bo‘limlari faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘z hisobotlarida aks ettiradilar. Italiyada qimmatli qog‘ozlar birjasida ro‘yxatdan o‘tgan kompaniyalar konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishi majburiy hisoblanadi. Yaponiyada konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish bo‘yicha standart 1977 yilda qabul qilingan. Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, jahon mamlakatlarida bu masalani hal qilish bo‘yicha turli xil qarashlar mavjud.

2016 yil 13 aprelda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot» nomli 23-moddasida “Asosiy xo‘jalik jamiyatni bo‘lgan va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga, o‘z nazorati ostidagi tashkilotlarga ega buxgalteriya hisobi subyekti konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tartibi, shuningdek asosiy xo‘jalik jamiyatining nazorati ostidagi tashkilotlarga qo‘yiladigan talablar buxgalteriya hisobi standartlari bilan belgilanadi” – deyilgan.[1]. Bugungi kunda konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 28 dekabrda 580-sun bilan ro‘yxatga olingen «Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlar va investisiyalarni sho‘ba xo‘jalik jamiyatlarida hisobga olish» deb nomlangan 8-son “Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga sarmoyalarni hisobga olish va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar» O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) bilan tartibga

solinadi. Amaliyotda konsolidasiyalashgan hisobot tuzish tajribasi hozircha keng rivojlanmaganligi sababli, ularni tuzishning tamoyillarini joriy etish va masofadan turib hisob ma'lumotlarini umumiyligi ma'lumotlar bazasiga uzatish tizimi mexanizmini ishlab chiqish talab etilmoqda.

10-sonli Moliyaviy hisobotning xalqaro standartida konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotga quyidagicha ta'rif berilgan: "Jamlangan (konsolidatsiya lashgan) moliyaviy hisobotlar- Guruh moliyaviy hisobotlari bo'lib, ularda bosh tashkilot va uning shu'ba tadbirkorlik subyektlari aktivlari, majburiyatlar, kapitali, daromadi, xarajatlari va pul mablag'lari oqimlari iqtisodiy faoliyat yagona subyektining aktivlari, majburiyatlar, kapitali, daromadi, xarajatlari va pul malag'lari oqimlari sifatida ifodalanadi." [2]

Ayrim iqtisodchi olimlar ham konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobt tuzadigan korxonalar to'g'risida o'z fikrlarini aytgan, xususan S.N.Tashnazarov "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzadigan kompaniyalar guruhiga bosh kompaniya hamda u tomonidan nazorat qilinadigan barcha sho'ba kompaniyalar kiradi. Agar kompaniya bosh kompaniya tomonidan nazorat qilinsa, u holda konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot bu kompaniyalarning faoliyat turlaridagi mavjud farqlardan qat'iy nazar tuziladi." [7]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan mavzuga oid ilmiy va nazariy yondashuvlar urganilib mushohada qilingan. Tadqiqotda belgilangan maqsadga erishish uchun yo'naliш tanlab olingan. Empirik tadqiqotning kuzatish, jamlash, guruhlash va ma'lumotlar manbalari o'rtaсidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotni umumiyligi - bosh va sho'ba korxonalar guruhi sifatida ko'rib chiqiladigan o'zaro bog'liq tashkilotlar bosh va sho'ba korxonalar guruhiining moliyaviy hisobotini ifoda etadi. Shu sababli uning asosiy maqsadi ayrim jamiyatning hisobot maqsadi kabi hisobot davrida mulk va moliyaviy ahvolni, shuningdek hisobot davri uchun faoliyatning natijalarini ishonchli ifoda etish hisoblanadi.

Bunda bosh va sho'ba korxonalar guruhi va ayrim jamiyat uchun hisobotni tuzishda hal etilayotgan vazifalar o'xshash bo'ladi: bu ma'lumotni toplash, hujjatlashtirish, tahlil qilish va guruhlashtirish demakdir. Biroq, bunda ayrim jamiyat hisoboti va konsolidasiyalashgan hisobotning maqsadi, vazifalar bir-biriga to'liq mos kelmaydi. Konsolidasiyalashgan hisobot uchun esa ushbu maqsadi va vazifalar bir nechta boshqa jamiyatlar hisobotini umumlashtirish zarurati bilan bog'liq xususiyatlar sababli «kengayadi».

Masalan, xo'jalik operasiyalarini hujjatlashtirishni ko'rib chiqamiz. Bundan tashqari, birlashgan jamiyatlarning barcha xo'jalik operasiyalarini hisobga olinishi lozim. Konsolidasiyalashgan hisobot uchun esa quyidagilar alohida aks ettirilishi kerak:

- jamiyatlar bosh va sho'ba korxonalar guruhlari o'rtaсidagi bitimlar;
- ayrim jamiyatlarning birlashishidagi hisobotida o'zgarishlar;
- konsolidasiyalashgan balansning yangi pozisiyalarning umumlashishi va moliyaviy natijalar hisoboti, shuningdek, ularning yillar bo'yicha o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan hajmlari;
- yashirin zahira va sarf-xarajatlar hajmi hamda hisobga olishni, shuningdek, firmalar narxi va hokzolarni aniqlash uslubi.


Natijada umumlashtirish uchun zarur bo'lgan, shuningdek uning natijasida yuzaga keladigan va barcha axborotni aks ettiradigan «umumlashtirilgan» buxgalteriya hisobini joriy qilish zarur hisoblanadi. Bunday hisobni joriy qilmasdan turib bosh va sho'ba korxonalar guruhi hisobotini tuzish uchun ishonchli ma'lumotlar olish mumkin emas. Bunda «umumlashtirilgan buxgalteriya hisobi» har qanday hisobotni tuzish uchun umumiyligi hisoblangani kabi, konsolidasiyalashgan hisobotni ham uning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan hisob yuritish tartibiga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Ushbu

tartiblar bir bo‘lishi kerak. Ushbu shart konsern hisobotining ishonchlilagini tasdiqlash uchun juda muhim.

Ayrim jamiyatlar hisoboti ma’lumotlari yetishmasligining «kompensasiya»si sifatida xizmat qiladigan «kompensasiya» maqsadi va vazifalari bosh va sho‘ba korxonalari guruhining hisoboti uchun o‘ziga xos xususiyat hisoblanadi.

Bosh va sho‘ba korxonalari guruhni tarkibiga kiradigan ayrim jamiyatlar hisoboti asosida uning mulk va moliyaviy ahvoli hamda faoliyati natijasini baholash mumkin emas. Ushbu holatda konsolidasiyalashgan hisobotni tuzish zarur hisoblanadi va uni tuzish xususiyatlari tufayli u yagona iqtisodiy tuzilma sifatida Bosh va sho‘ba korxonalari guruhni ishlarining aniq ahvolini ishonchli taqdim etish qobiliyatiga egadir. Konsolidasiyalashgan hisobotning aynan ushbu ma’lumotlar yetishmasligini Bosh va sho‘ba korxonalari guruhining ayrim jamiyatlar hisobotini shunchaki jamlash uslubi bilan emas, balki Bosh va sho‘ba korxonalari guruhni ichidagi operasiyalarni istisno qilishni inobatga olgan holda umumlashtirish orqali yengib o‘tish qobiliyati «kompensasiya» maqsadi deb ataladi. Kompensasiya maqsadiga shu narsa davomida erishildiki, bunda barcha operasiyalar va ularning hisobot davrining u yoki bu ko‘rsatkichlariga ta’siri ayrim hisobotlarni umumlashtirish chog‘ida bir xillashtiriladi va Bosh va sho‘ba korxonalari guruhni nuqtai nazaridan yagona iqtisodiy tuzilma sifatida baholanadi hamda istisno qilinadi. Ushbu jarayon bir xillashtirish yoki to‘plash deyiladi. Aynan mana shuning uchun umumlashtirishda bosh korxonaning sho‘ba jamiyatlariga sarflagan barcha xarajatlari, mulkning qiymat bahosiga kiradigan «o‘rtadagi» daromad va zararlar, bosh va sho‘ba korxonalari guruhni ichidagi yuzaga keladigan daromad va sarf xarajatlar istisno qilinadi.

Hisobot bunday axborotning ichki va tashqi iste’molchilari – korxonalar egalari, Bosh va sho‘ba korxonalari guruhni va kengashlar rahbarlari, uning tarkibiga kiruvchi jamiyatlar xodimlari, solohiyatlari investor va kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, davlat, shuningdek, boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan. Ya’ni, konsolidasiyalashgan hisobotning asosiy vazifalarini ta’riflash mumkin:



**1-rasm. Konsolidasiyalashgan hisobotning asosiy vazifalari**

1. Axborot vazifikasi. Aynan mana shu vazifa bosh va sho‘ba korxonalari guruhni bo‘yicha har qanday bosh va sho‘ba korxonalari guruhni va korporativ birlashmalar, kichik milliy kompaniyalar uchun axborot olish imkonini beradi.
2. Nazorat qilish vazifikasi. Konsolidasiyalashgan hisobotdan bosh korxonaning u yoki bu jarayonlarini nazorat qilish vosita foydalanish mumkin.
3. Rejalashtirish va tartibga solish vazifikasi. Tashqi iste’molchilar uchun, masalan, ushbu vazifa

shundan iboratki, konsolidasiyalashgan hisobotdan bosh va sho‘ba korxonalari guruhi faoliyatini rejalashtirish, uning ichidagi u yoki bu jarayonlarni tartibga solish, moliyalashtirish va daromadlarni moliyaviy rejalashtirish, ichki dividendlarni to‘lash uchun foydalaniladi.

4. Solishtirish va tahlil qilish vazifasi. Bu vazifa Bosh va sho‘ba korxonalari guruhi ichidagi ayrim jamiyatlar va ba’zi Bosh va sho‘ba korxonalari guruhlari o‘rtasida ularning faoliyati va iqtisodiy ahvolini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, keljakda konsolidasiyalashgan hisobot o‘ta muhim rol o‘ynaydi, uni qo‘llash vazifalari va sohalari yanada kengayadi.

Yuqorida qayd etilganidek, bosh va sho‘ba korxonalari guruhi yoki ayrim jamiyat hisoboti ularning umumiyligiga qaramasdan, konsolidasiyalashgan hisobot o‘z xususiyatlari tufayli ayrim korxonalar hisobotining maqsadlari, vazifalarini kengaytirishi va to‘ldirishi bilan ajralib turadi. Uni tuzishning ayrim talablariga nisbatan ham ana shunday deyish mumkin. Yuqorida keltirilgan qoidalar ayrim jamiyat hisobotiga taalluqli bo‘lgani kabi konsolidasiyalashgan hisobotga ham taaluqlidir.

Xo‘jalik yurituvchi subektlar guruhining bosh korxona ostida birlashuvi yuz bersa, konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot tuziladi. Moliyaviy hisobot konsolidasiyasi bu yuridik jihatdan mustaqil, ammo iqtisodiy moliyaviy tomondan o‘zaro bog‘liq ikki yoki undan ortiq kompaniyalar hisobotlarini birlashtirishdir.

Avvaldan shuni ta’kidlamoqchimizki, tajribaga ko‘ra, rejali iqtisodiyotga xos bo‘lgan jamlama hisobot va konsolidasiyalashgan hisobot o‘rtasidagi farq bir tomondan, ularning maqsadli yo‘naltirilishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan tuzish usullari va ko‘rsatkichlar tarkibiga bog‘liqdir. Ayni paytda o‘xshash jihatlari shundaki, hisobotning har ikki turi o‘zaro bog‘liq tashkilotlarning yaxlit hisobotidir.

Xalqaro hisob andozalariga ko‘ra, konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot bosh korxona rahbarligidagi korxonalar guruhi uchun konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish bilan shug‘ullanadi. Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot moddalari korxonalar guruhidagi moliyaviy ahvol, operasiyalar natijalari va moliyaviy ahvoldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi axborotlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida rivojlantirilgan. Aynan konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotgina iqtisodiy va moliyaviy jihatdan bir-biriga bog‘liq bir nechta kompaniyalarning guruhi xususida umumiy ma’lumot olishni ta’minlab, ushbu kompaniyalar guruhining faoliyati natijalari va istiqbolini o‘zida s ettiradi.

Umumlashtirish amaliyoti hamon o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega, bu esa ko‘pincha ziddiyatlarga va qarama-qarshiliklarga olib keladi. Shu tufayli qator xalqaro tashkilotlar ushbu tafovutlarni bartaraf etishga intilmoqda. Shulardan eng nufuzlisi Xalqaro hisob yuritish standartlari qo‘mitasidir (IASC), dastlab unga 13 ta eng rivojlangan mamlakatlar: AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya va shu kabi davlatlar kirdi

Hozirgi kunga kelib IASC 30 dan ziyod standartlarni ishlab chiqdi. Ushbu standartlar (BHXS/IAS) tavsiya xususiyatiga ega bo‘lib, yuridik jihatdan ularga amal qilish lozim emas. 70-yillarning o‘rtalarida qo‘mita umumlashtirish jarayonini tadqiq qilishga kirishdi. O‘tgan davr mobaynida u ushbu muammoga bag‘ishlangan beshta standartni e’lon qildi. Konsolidasiyalashgan hisobot bo‘yicha shulardan №14 standart «Segmentlar bo‘yicha moliyaviy hisobot», №27 «Алоҳида молиявий ҳисоботлар», №21 standart «Валюта курсларидағи ўзгарышларнинг таъсирлари», shuningdek №28 standart “Қараш тадбиркорлик субъектларидаги ва қўшма корхоналардаги инвестициялар”.

Savdo-sotiqda erkin munosabat yuritish, hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish uchun sherik tanlay bilish, o‘zi ishlab chiqargan mahsulot va uni sotishdan olgan daromadga to‘liq egalik qilish moliyaviy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga bevosita ta’sir etadi.

Yangicha ish yuritish avval uchramagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamroh tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o‘rganish

zarurligini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, konsolidasiyalashgan hisobot ayrim jamiyatning hisobotiga nisbatan to'ldirish masalasini hal etadi. Bu shu bilan ifodalanadiki, konsolidasiyalashgan hisobot ham ayrim jamiyat hisoboti singari ko'rib chiqiladi va asoslanadi. Aynan mana shuning uchun ham konsolidasiyalashgan hisobot ayrim jamiyatlar hisobotini almashtirmaydi, aksincha uni to'ldiradi.

Konsolidasiyalashgan hisobot vazifalari va uni qo'llash sohasi bir- biriga bevosita bog'liq va asosan konsolidasiyalashgan hisobotning maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqadi. Yuqorida qayd etilganidek, hisobotning ushbu turi hisobot davriga mulk va moliyaviy ahvol to'g'risida ma'lumotni va shuningdek, bosh va sho'ba korxonalari guruhi faoliyatining hisobot davri uchun moliyaviy natijalarini ifoda etadi.

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini audit qilish, ularning ishlarini yaxshilash, samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Xo'jalik faoliyatini audit qilish korxonalarning ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi, foydalanilmagan resurslarni aniqlab; korxonalarning kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. "Buxgalteriya xisobi to'grisida"gi Qonun. Тошкент ш., 2016 йил 13 апрель, ЎРҚ-404-сон.
2. 10-son MHMS "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot"
3. 11-son MHXS "Qo'shma faoliyat"
4. 12-son MHXS "Boshqa kompaniyalarga qatnashish hissasi to'g'risidagi axborotlarni ochiqlash".
5. 27-son BHXS "Alohiba moliyaviy hisobot"
6. 28-son BHXS "Assotsiatsiyalashgan kompaniyalarga investitsiyalar vaqo'shma korxonalar".
7. S. N . Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: 2019. – 555 б.